

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , asisstent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



MINTAQAVIY INVESTITSION LOYIHALARNING JOZIBADORLIGI TAHLILLARI MASALALARI

Davlyatshayev Akmal Ashurmatovich

Farg'ona Politexnika Instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i. f. n.

Annotatsiya: Maqolada investitsiya loyihalarining tahlil etish muhimligi asoslangan, inflyatsiya jarayonlari va tavakkalchilik nuqtayi nazaridan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishning nazariy va uslubiy masalalari bayon etilgan. Mintaqaviy rivojlanish dasturlari bilan bog'liq investitsiya loyihalarini baholash usullari, ularni tahlil qilish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalar, loyihalarni tahlil qilish turlari, iqtisodiy jozibadorlik, mintaqaviy rivojlanish dasturlari.

Abstract: The article substantiates the importance of analyzing investment projects, describes the theoretical and methodological issues of analyzing the economic efficiency of investment projects from the point of view of inflationary processes and risk. Methods for evaluating investment projects related to regional development programs, the features of their analysis are considered.

Key words: investment projects, types of project analysis, economic attractiveness, regional development programs.

Аннотация: В статье обоснована важность анализа инвестиционных проектов, описаны теоретические и методологические вопросы анализа экономической эффективности инвестиционных проектов с точки зрения инфляционных процессов и риска. Рассмотрены методы оценки инвестиционных проектов, относящихся к программам регионального развития, особенности их анализа.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, виды анализа проектов, экономическая привлекательность, программы регионального развития.

KIRISH

Iqtisodiy adabiyotlarda nisbatan yaqinda "investitsiya" atamasi keng qo'llanila boshlandi va mashhurlikka erisha boshladi. Shuning bilan bir qatorda globalashuv jarayonlarining rivojlanishi, integratsiya aloqalarining kengayishi "investitsiya" tushunchasini bir qator yangi ma'nolar bilan to'ldirdi va faoliyatning turli sohalarida qo'llanila boshlanishiga asos bo'ldi. "Investor" tushunchasi omonatchi, "investitsiya" esa kapital qo'yilmalarni joylashtirish sifatida talqin qilinadi. Investorning faoliyati har xil turdag'i aktivlarga resurslarni investitsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, ularni sotib olish uning asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarurdir. Daromadlilik darajasini oshirish uchun investor vaqtincha bo'sh resurslarni daromad keltiradigan, lekin asosiy faoliyatda qatnashmaydigan aktivlarning har xil turlariga investitsiya qilishi mumkin.

Investor (kapital egasi) nuqtayi nazaridan investitsiya qilishning mohiyati "ertaga" olinadigan foyda uchun "bugun" olinadigan foydadan voz kechishdir. Ushbu turdag'i operatsiyalar bank tomonidan kredit berishga o'xshaydi. Shunga ko'ra, kapitalni uzoq muddatli investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun u yoki bu darajada ikkita asosiy taxminni tasdiqlovchi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

- investitsiya qilingan mablag'lar to'liq qoplanishi kerak;
- investitsiya qilingan mablag'lar natijasida olingan foyda miqdori ushbu foydadan foydalanishdan vaqtinchalik voz kechish imkonini berishni, shuningdek, kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni qoplash uchun yetarli darajada bo'lishi kerak.

Binobarin, investitsiya qarorini qabul qilish muammosi – bu rejaning mazmuni va uni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlari kutilayotgan natijaga qanchalik mos kelishi nuqtayi nazaridan taklif etilayotgan voqealarni rivojlantirish rejasini baholash va shu asosda investitsiya loyihasini ishlab chiqish^[1].

Investitsion loyihalarning shakllari va mazmuni juda xilma-xil bo'lishi mumkin: yangi korxona qurish rejasidan, ko'chmas mulkni sotib olishning maqsadga muvofiqligini baholashgacha. Barcha holatlarda, investitsiya boshlangan paytdan va loyihaning foyda keltira boshlagan payti o'tasida vaqt omili mavjud.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli ularning iqtisodiy o'sish sur'atlariga, ishlab chiqarish va aholi bandligi hajmiga ta'sirida, alohida hududlar va iqtisodiy faoliyat sohalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi tarkibiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'p jihatdan investitsiyalarning jismoniy hajmi bilan belgilanadi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, investitsiyalarning taxminan har 3% o'sishi YalMning 1% o'sishini anglatadi [2].

Jahon iqtisodiyotida integrasjion jarayonlar, globallashuv ko'lamlarining ortib borishi va pirovard natijada iqtisodiyot tarmoqlariga investisiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda bir qator iqtisodchi olimlar turli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Jumladan, xorijlik olimlardan Zvi Bodи, Aleks Keyn, Alan Markus, K. R. Makkonnell i S. L. Bryu, T. K. Rutkauskas [3-5] va MDH mamlakatlari olimlaridan A. Y. Kovalevskaya, L. I. Yuzvovich, S. A. Degtyarev, Y. G. Knyazeva va boshqalar [6-7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. V. Vaxabov, G. X. Razikova, Z. Sabirova, D. Y. Xo'jamqulova va boshqalarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin [8-9].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarini e'tiborga olgan holda, bugungi kunda investision faoliyat, uni mintaqalar darajasida faollashtirish, jalb etish va moliyalashtirish masalalari hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy muammolarini yetarli darajada va kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni olib borish talab qilinmoqda. Bular esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotning oldiga qo'yilayotgan yuqori sur'atlarda rivojlanish, innovasion rivojlanishni investisiyalashning asoslarini takomillashtirish bo'yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, investitsiya jarayonlarini boshqarish muammolariga bag'ishlangan ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va guruhlash, tarixiylik va mantiqiylik yondashuvlaridan foydalilanigan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo iqtisodiyotida kechayotgan siyosiy jarayonlar hamda kuchli raqobat sharoitida savdo va investitsiya oqimlari yo'naliishlari tez o'zgarib bormoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli ularning iqtisodiy o'sish sur'atlariga, ishlab chiqarish va aholi bandligi hajmiga ta'sirida, alohida hududlar va iqtisodiy faoliyat sohalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi tarkibiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, mamlakatimizda "agar 2016-yilda o'zlashtirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar va kreditlar 1197,7 mln. dollar miqdorida bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 10037,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Birgina joriy yilning 1-choragida 2300,8 mln. AQSH dollari miqdorida chet el investisiyalari jalb etildi" [10].

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining sakkizinch moddasiga muvofiq "Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir.

Barpo etilishi va foydalanimishi qonunchilikda belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablariga va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya qilish taqiqlanadi" [11].

Shuningdek, mazkur qonunning to'qqizinch moddasiga asosan "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari – rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'limgan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir" [11].

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish maqsadida investitsiya resurslarini shakllantirish va ulardan foydalish bo'yicha investitsiya jarayoni ishtirokchilari o'ttasida yuzaga keladigan munosabatlarning eng maqbul variantini topishdan iborat. Investitsiyalar qator muhim funksiyalarni bajaradi, iqtisodiyotning o'sishini belgilaydi, ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ya'ni boshqacharoq aytganda, investitsiyalar foyda (daromad) olish maqsadida xususiy yoki davlat kapitalining milliy yoki xorijiy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli qo'yilmasi hisoblanadi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi, ularsiz har qanday davlat iqtisodiyotining va xususan, mintaqaviy iqtisodiyotning normal rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mintaqaviy miqyosda investitsiyalar takror ishlab chiqarishni kengaytirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, mahalliy mahsulotlar sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash, hudud iqtisodiyotini



tarkibiy o'zgartirish va uning barcha tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish, sanoat uchun zarur moddiy baza va xomashyo resurslarini yaratish siyosatini amalga oshirishning asosi hisoblanadi. Ular korxonalarining normal ishlashini, barqaror moliyaviy holatini va tadbirkorlik subyektlarining foydasini maksimal darajada oshirishni ta'minlash uchun zarurdir. Investitsiyalsiz: ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, asosiy fondlarning eskirishi va jismoniy eskirish oqibatlarini bartaraf etish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va boshqa korxonalarining aktivlariga investitsiya kiritish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda o'ziga xos muammolar paydo bo'ladi.

Mintaqaviy darajadagi investitsiyalar quyidagilar uchun asos bo'ladi:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini amalga oshirish;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, hududiy, demak, mahalliy mahsulotlar sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va hududlarning tarmoq infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish;
- hududning zarur ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish;
- ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishsizlik bilan bog'liq muammolarni yumshatish yoki kamaytirish;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish va boshqalar.

Bozor munosabatlарини rivojланishi sharoитida korxonalар, turli biznes darajalari vakillarining o'zлari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanishning eng samarali usullarini izlashlari kerak. Bunday sharoитda investitsiyalarni qabul qiluvchi tomonlar, jumladan, mintaqaviy hokimiyatlar uchun birinchi navbatda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini tanlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan iqtisodiy dasturlardan kelib chiqib, investitsiya dasturlari shakllantiriladi, loyihalar amalga oshirilishining ahamiyati va ustuvorligi darajasiga ko'ra saralanadi. Ayniqsa, bu ishlab chiqarish ijtimoiy va boshqa tuzilmalarning rivojlanish darajasi sezilarli darajada farq qiladigan hududlar uchun muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun investitsiya qarorlarining sifati va investitsiya yo'nalishlarining asosliligi to'g'ri va samarali o'tkazilgan investitsiya tahlillariga bog'liq.

Investitsion loyihalarni tahlil qilish har bir mintaqaga uchun alohida ishlab chiqilgan texnik, texnologik, ijtimoiy va boshqa loyihalarga investitsiya qilishning mumkin bo'lgan variantlarini solishtirish va aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirish dasturlarini samarali amalga oshirish uchun ko'rib chiqilayotgan qarorlar bilan bog'liq barcha ma'lumotlar to'plamini puxta professional tahlil qilish va hududlarning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda investitsiya loyihalari bo'yicha mas'uliyatli strategik qarorlar qabul qilish ayniqsa muhimdir. Loyihaviy qarorlarni asoslash uchun loyiha tahlili xarajatlar va natijalarni taqqoslash asosida loyihalar samaradorligini baholash uchun uslubiy vositalar to'plami sifatida ishlatiladi. Bunday tahlilning tartibi va usullari muammoni hal qilishning muqobil variantlarini – dizayn va investitsiyalarni ilgari surishga, ularning har biri uchun noaniqlik darajasini aniqlashga va ma'lum ishslash mezonlari bo'yicha taqqoslashga qaratilgan.

An'anaviy ravishda investitsiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- **real (to'g'ridan to'g'ri) investitsiyalar** – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi korxonalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga xususiy yoki davlat kapitalining kiritilishi.
- **moliyaviy (portfel) investitsiyalar** – uzoq muddatli moliyaviy aktivlarga kapital qo'yilmalar – xususiy kompaniyalar yoki davlat tomonidan chiqarilgan aksiyalar, pay ulushlari, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari.
- **intellektual investitsiyalar** – patentlar, lisenziyalar, nou-xaularni olish, ilmiy ishlanmalarni o'tkazish, mutaxassislarni kurslarda tayyorlash, tajriba o'tkazish.

Loyihalarning xilma-xilligiga qaramay, ularni tahlil qilish odatda umumiyoq sxema bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1. Dastlabki tahlil.
2. Moliyalashtirish manbalari bilan kelishilgan texnik-iqtisodiy asoslash.
3. Loyiha samaradorligini joriy baholash.

Tanlangan ko'rsatkichlar asosida loyihaning dastlabki tahlili amalga oshiriladi. Buning uchun odatda quyidagi ekspert tizimi qo'llaniladi:

birinchi bosqich – loyihaning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash;

ikkinchi bosqich – omillar ustuvorlikning kamayishi tartibida joylashtiriladi;

uchinchchi bosqich – sanab o'tilgan omillarning har birining darajasini baholash. Barcha omillarning darajalari yig'indisi birga teng bo'lishi kerak;

to'rtinchi bosqich – bitta loyihaning loyihalari yoki variantlari har bir baholash omillari (mezonlari) bo'yicha baholanishi kerak. Ushbu bosqichda loyiha qila ta'sir etuvchi har qanday omillar uchun maksimal 100 bal, minimal 0 ball olish mumkin;



beshinchi bosqich – har bir omil ta'sirining ekspert bahosi har bir omilning ahamiyat vaznini (og'irligini) har bir variant uchun ushu omilning ta'sir etish bahosiga ko'paytirish orqali olinadi. Loyiha variantlari ustuvorligining integral ekspert bahosi barcha nuqtalarining yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Agar loyiha qo'shimcha ko'rib chiqishga loyiq bo'lsa, loyihaning texnik, moliyaviy, iqtisodiy, tijorat, ijtimoiy, ekologik, xavf tahlili va institusional maqsadga muvofiqligini baholovchi maxsus bo'limlarni o'z ichiga olgan keyingi bosqichga o'tish mumkin.

Loyihani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun loyihaning butun hayotiy sikli davomida uning barcha jihatlarini ko'rib chiqish kerak.

Investitsiya loyihasini umumiy baholashning ma'nosi qaror qabul qiluvchiga investitsiyaning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradigan loyiha haqida barcha ma'lumotlarni taqdim etishdir. Investitsion loyihaning jozibadorligining umumiy mezonlari qanday? Bu mezonlar ikkiga bo'linadi: qisqacha ularni "moliyaviy to'lov qobiliyat" va "samaradorlik" deb ta'riflash mumkin.

Bu ikkala yondashuv ham bir-birini to'ldiradi. Birinchi holda, loyihi amalga oshirish jarayonida uning likvidligi (to'lov qobiliyat) tahlil qilinadi. Ikkinci holda, investitsiya qilingan mablag'larning xarid qiymatini saqlab qolish va ularning o'sishining yetarli sur'atlarini ta'minlash uchun loyihaning potensial qobiliyatiga e'tibor qaratiladi [12].

Mintaqaviy darajada investitsiya faoliyatini boshqarish va tahlil qilish potensial investorlar uchun ham, mintaqaviy hokimiyat organlari uchun ham muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Boshqaruv, aniqrog'i, investitsiya faoliyatini birgalikda boshqarish quyidagi vazifalarni hal etilishini ta'minlashi kerak:

1. Samarali investitsiya faoliyati orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlash. Bu vazifa ishlab chiqilgan hududiy rivojlanish dasturlariga muvofiq hal etiladi.
2. Investorni ham (foydanı ko'paytirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va shunga o'xshash), hududlarni ham (yangi texnologiyalarni jalb qilish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o'rinnari yaratish, mahalliy byudjetlarga soliq imtiyozlari va boshqalar) qo'yilgan vazifalarni investitsiya faoliyati evaziga hal etilishini ta'minlash.
3. Investitsiyalar bilan bog'liq risklarni minimallashtirish.
4. Mintaqaviy dasturlar doirasida investitsiya faoliyati jarayonida investorlarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qibiliyatini oshirish. Investitsion faoliyat moliyaviy resurslarni keng miqyosda va, qoida tariqasida, uzoq muddatga yo'naltirish bilan bog'liq. Bu joriy xo'jalik operatsiyalarida investorlarning to'lov qibiliyatining pasayishiga, sheriklar, davlat byudjeti va ularning boshqa turlari oldidagi to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslikka olib kelishi mumkin va pirovard natijada bankrotlik holati uchun shart-sharoitlarni yaratishi mumkin. Shu bois, hududlar bo'yicha investitsiya dasturlarini ishlab chiqishda hududiy hokimliklar amaldagi normativ-huquqiy hujjalarga asoslangan holda turli sharoitlarda, jumladan, fors-major holatlarida investorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetarli tashkiliy-moliyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari, ularga qonun hujjalarda nazarda tutilgan turli imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishlari zarur.
5. Hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirishni Jadallashtirish yo'llarini birgalikda belgilash. Investitsion dasturlarni amalga oshirishning muhim elementlaridan biri investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarni amalga oshirishni nazorat qilish funksiyasini hisoblanadi. Investitsion loyihalarni boshqarishda nazorat qilish funksiyasi belgilangan maqsadlarga erishish uchun boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonidagi o'zgarishlarni monitoring qilish, baholash, nazorat qilish va tahlil qilish tizimini o'z ichiga oladi. Nazorat funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun loyihaning dastlabki bosqichlarida boshqaruv tizimini tashkil etish lozim bo'ladi. Samarali nazorat tizimini yaratishning asosiy tamoyillari aniq rejalarining mavjudligi, ochiq va aniq hisobot tizimi, real ko'rsatkichlar va tendensiyalarni tahlil qilishning va zarur hollarda samarali ta'sir choralarini qo'llash tizimini o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mintaqaviy investitsiya siyosati davlatning investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida mintaqalarning investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha maqsadli faoliyatini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, ularning aksariyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelish imkonini beradi va pirovardida ularning barchasi nafaqat investitsiya faoliyatiga, balki butun mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.



Yuqoridaagi muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy darajadagi investitsiyalarni boshqarish yoki investitsiya menedjmenti o'z funksiyalarini samarali amalga oshirishi kerak, ularning asosiyлari quyidagilardan iborat:

- har bir investitsiya dasturini amalga oshirishning yuqori sur'atlari butun mintaqaning iqtisodiy rivojanishini jadallashtirishga yordam berishi kerak;
- investitsiya dasturini amalga oshirish muddatini qisqartirish investitsiyalardan foyda ko'rinishidagi qo'shimcha pul oqimlarini shakllantirish tezligini belgilaydi;
- investitsiya dasturlarini amalga oshirishni jadallashtirish kredit resurslaridan foydalanish shartlarini qisqartiradi;
- investitsiya dasturlarini tezkorlik bilan amalga oshirish investitsiya bozoridagi noqulay o'zgarishlar bilan bog'liq investitsiya risklarini kamaytirishga yordam beradi.
- investorlar uchun investitsiya faoliyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- hududlarning investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- individual real loyihalarning Investitsion jozibadorligini izlash va baholash hamda ulardan eng samaralisi tanlash;
- investitsiya portfelini shakllantirish va uni rentabellik, risk va likvidlik mezonlari bo'yicha baholash;
- investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirishni joriy rejalashtirish va operativ boshqarish;
- investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirish monitoringini tashkil etish.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алексеева Т. В. Интернет – курс по дисциплине “Проектный анализ”, - Москва: 2010, 142 с.
2. Инвестиционный анализ: краткий курс лекций для студентов направления подготовки 38. 03. 02 Менеджмент/ Кондак В. В., Зеленкина Е. В. // ФГБОУ ВО Саратовский ГАУ. – Саратов, 2016. – 30 с.
3. Зви Боди, Алекс Кейн, Алан Маркус. Принципы инвестиций. Essentials of Investments. – М.: “Вильямс”, 2004. – 984 с.
4. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы проблемы и политика. – М.: Республика, 1992. – Т. 2. – С. 388.
5. Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций : учебное пособие / Т. К. Руткаускас [и др.] ; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т. К. Руткаускас. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. – 316 с.
6. Ковалевская А. Ю. Анализ инвестиционных проектов. Учебное пособие. – Иркутск: издательство БГУ, 2018. – 118 с.
7. Юзович Л. И., Дегтярев С. А., Князева Е. Г. Инвестиции. Учебник. - Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та. 2018. - С. 259.
8. Вахабов А. В. Разыкова Г. Х. Модернизация экономики. Учебное пособие. - Т.: "Iqtisod-moliya", 2014. - 200 с.
9. Сабирова Л. Ш., Хужамкулов Д. Ю. Инвестиция. Учебное пособие. – Т.: Экономика и финансы, 2019. – 254 с.
10. Sh. Nazarov. Investitsiya – mamlakat taraqqiyotining bosh manbayi, "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 13-iyul, №143 (8456).
11. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr, Toshkent sh.: O'RQ-598-son.
12. Davlyatshayev A. A. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiya risklarini boshqarish samaradorligini oshirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. –2023. -№3 (3). –78–87-betlar.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.